

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI SO'Z MA'NOSI USTIDA ISHLASH ORQALI AQLIY FAOLIYAT USULLARIGA O'RGATISH YO'LLARI

Ismoilova Malika Erkin Qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7184058>

Kalit soʻzlar: Grammatik tushuncha, aqliy faoliyat, orfografik, semantik, nutq.

Key words: Grammatical understanding, mental activity, orthography, semantics, speech.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarini aqliy faoliyat usullariga o'rgatishning metodik shartlari quyidagicha:

I. O'quvchilar aqliy faoliyatini faollashtirish. Bilimni o'zlashtirishning natijasi ma'lum darajada o'qitish metodlariga bog'liqdir. Bayon metodi asosan o'quvchilarning eslab qolishiga mo'ljallanadi va ularning bilish faoliyatini faollashtira olmaydi, shuning uchun kutilgan natijani bermaydi. Maktab tajribasini ommalashtirish va olimlar (L.V.Zankov, Yu.N.Babanskiy, V.P.Strezikozin va boshq.)ning maxsus tekshirishlari ko'rsatishicha, izlanish metodlari (boshlang'ich sinflarda qisman izlanish metodi) ko'proq samarali hisoblanadi. Grammatik tushunchani shakllantirishda izlanish vaziyati o'qituvchi bergan vazifa va uni jamoa bo'lib bajarish vaqtida yaratiladi. Izlanish vaziyati o'quvchilarni yangilikni bilishga qiziqtiradi va vazifani bajarish usulini mustaqil ravishda ijodiy tanlashga undaydi. Masalan, o'quvchilarni so'z yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirishda o'qituvchi xattaxtaga gul — gulchi, g'alla — g'allakor, traktor — traktorchi kabi so'zlarni ikki ustun tarzida yozadi. O'quvchilarga "Ikki ustun shaklida yozilgan so'zlarni kuzating, ma'nolaridagi farqini o'ylab ko'ring, shu so'zlarning ma'nosini farqlashga xizmat qilayotgan qismini toping" topshirig'i beriladi. Birgalikda o'tkazilgan muhokamadan so'ng o'quvchilar quyidagicha xulosaga keladilar:

— Gul so'zi o'simlikning bir turini, gulchi esa gullarni parvarish qiluvchi kishi ma'nosini bildiradi; g'alla — o'simlik, g'allakor — g'alla yetishtiruvchi kishi; traktor so'zi qishloq xo'jalik mashinasini, traktorchi esa traktorda ishlovchi kishi ma'nosini bildiradi. So'zning -chi, -kor qismi ikki so'zning ma'nosini farqlashga xizmat qiladi; -chi, -kor alohida kelganda ma'no anglatmaydi, bular qo'shimcha; so'zga qo'shilganda ishlovchi, shug'ullanuvchi kishi ma'nosini anglatyapti, ya'ni yangi ma'noli so'z hosil bo'lyapti; demak, -chi, -kor so'z yasovchi qo'shimcha.

Muammoli vaziyatni orfografik mavzu bilan tanishtirish jarayonida ham yaratish mumkin. Masalan, o'qituvchi "Hayvonlarga qo'yilgan nomning bosh harf bilan yozilishi" mavzusini tushuntirish uchun o'quvchilarga "Kim qanday uy hayvonlarini boqadi? Ularga o'zingiz nom qo'yganmisiz? Qanday nom qo'ygansiz?" kabi savollarni beradi. O'quvchilar tartib bilan o'zlari boqayotgan

hayvonlari va unga qoʻygan nomlarini aytadilar (mushuk — Mash, kuchuk — Olapar, sigir — Targʻil, ot — Lochin kabi); oʻqituvchi ikki ustun shaklida xat-taxtaga yozib boradi. Oʻqituvchi: “Ikki ustun shaklida yozilgan soʻzlarni oʻqing, ularni taqqoslang. Ularning yozilishida qanday farq bor? Nima uchun? Isbotlang” topshirigʻini beradi. Bu savol-topshiriqlar xarakteri bolalarni oʻylashga, izlanishga majbur qiladi. Ular birinchi ustundagi soʻzlar kichik harf bilan, ikkinchi ustundagilar esa katta (bosh) harf bilan yozilganini aytadilar, ammo nima uchun shunday yozilganini isbotlashga ularning bilimlari yetishmaydi. Shunday qilib, muammoli vaziyat yaratiladi. Oʻquvchilar yangi materialni oʻrganish zarurligini sezadilar. Bu metodda eng muhim jihat muammoli vaziyat yaratish, til hodisalarini tahlil qilish, oʻzaro taqqoslash omillarini bajarish bilan bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish hisoblanadi. Suhbat-muhokama jarayonida muammoni oʻqituvchi rahbarligida oʻquvchilarning oʻzlari hal qilishlari yoki oʻqituvchi tomonidan hal qilinishi ham mumkin.

Muhokamaning borishi bilimlar asosida topshiriqlarni faol bajarishni, faol aqliy faoliyatni talab qiladi.

II. Oʻquvchilarda soʻz va gapga lingvistik munosabatni oʻstirish ustida maqsadga yoʻnaltirilgan ishlar. Oʻquvchilarda soʻz va gapga lingvistik munosabat nazariy bilimlarni oʻzlashtirish, mavhum tafakkurni oʻstirish jarayonida shakllantiriladi va tilning semantik hamda grammatik tomonining bir-biriga taʼsirini anglashni bildiradi.

Oʻquvchilar tilni ularda til birliklariga, xususan, ularning asosiylari boʻlgan soʻz, morfema, soʻz birikmasi, gapga lingvistik munosabatni parallel shakllantirish bilan birga ongli oʻzlashtiradilar. Soʻzga lingvistik munosabat soʻzni tovush-harf tomonidan tahlil qilib, uning tovush va grafik tomoni oʻrtasidagi bogʻlanishini aniqlash, soʻzni morfemik tahlil qilish va soʻzga leksik maʼno berishda muammaning oʻrnini tushunish; soʻzni grammatik tahlil qilish va shu soʻzning muayyan soʻz turkumiga oid ekani bilan uning grammatik belgilari oʻzaro bogʻliqligini tushunish koʻnikmasining shakllanishiga qarab oʻsib boradi.

Lingvistik munosabat oʻquvchilarda asta-sekin shakllantirib boriladi, ularda bilish, tushunib olish saviyasi ham har xil boʻlishi mumkin. Masalan, 2-sinf oʻquvchilari gapdagi soʻz birikmalarini topadilar, ammo u soʻz birikmasidagi soʻzlar oʻzaro qanday, yaʼni nimalar yordamida bogʻlanganini tushuntira olmaydilar. Oʻqituvchi oʻquvchilarda soʻzga, soʻz birikmasi va gapga lingvistik munosabatni taʼlim jarayonida maqsadga muvofiq oʻstirib boradi, xususan, oʻrganiladigan kategoriyani oʻquvchi tushunib olishiga gʻamxoʻrlik qiladi.

III. Yangi tushunchani ilgari oʻrganilgan tushunchalar tizimiga kiritish. Tushunchani oʻzlashtirish, bilimni nutq tajribasiga tatbiq etishning muhim sharti

hisoblanadi. Tushunchalar orasida bog'lanishni vujudga keltirish, amalga oshirish o'quvchilarning o'zbek tilidan egallaydigan bilimlar tizimiga hamda tildan ongli foydalanishiga poydevor bo'ladi. Tushunchalar orasidagi bog'lanishni bilib olish amaliy (grammatik, orfografik, nutqiy) vazifalarni hal qilishda nazariy bilimlarni ko'proq tatbiq etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva Q.A. Birinchi sinfda nutq o'stirish. – Toshkent: «O'qituvchi», 1980. 156 b.
2. Davletshin M. Ta'limning psixologik asoslari. T, O'qituvchi, 1978, 70 b.
3. Ernazarova M., Husenova M. Rasmlil o'zbekcha-inglizcha izohli o'quv lug'at. Navoiy, 2019. 98 b.
4. Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. Toshkent:2018.128 b.
5. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili 3-sinf uchun darslik. Toshkent: O'qituvchi, 2016. 144 b.
6. Hojiev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent.: «O'qituvchi», 1974. – 308 b.
7. Rahmonova, M. (2021). Patriotic ideas in the works by fitrat: theoretical and practical harmony. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 1466-1474..
8. Raxmonova, M. (2022). ZAMONAVIY TADBIRKOR AYOL PSIXOLOGIYASINING KASBGA YO'NALGANLIGI. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(6), 204-206.
9. Xasanovna, R. M. (2022). ZAMONAVIY TADBIRKOR AYOL PSIXOLOGIYASINING MUHIM KOMPONENTLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 394-396..
10. Xasanovna, R. M. (2022). ZAMONAVIY TADBIRKOR AYOLLARNING IJTIMOY FAOLLIGI. Science and innovation, 1(B3), 497-500.
11. Khasanovna, R. M. (2022). The uniqueness of personality traits in modern entrepreneurial women. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 304-307.
12. Khasanovna, M. R. (2022). The entrepreneur's psychology of family relations.